



**NAVOIYURAN**  
State-owned Enterprise

# **2025-YIL OKTABR OYIDAGI GLOBAL URAN BOZORI TENDENSIYALARI**



# JAHON URAN SANOATI: 2025-YIL OKTABR

JAHON URAN NARXLARI

TABIIY URANGA BO'LGAN TAKLIF VA TALAB

XALQARO TADBIRLAR VA KELISHUVLAR

URAN SANOATINING BUTUN-JAHON KO'RGAZMASI

SINGAPUR ATOM ENERGETIKASINI KO'RIB CHIQMOQDA

IT-GIGANTLAR ATOM ENERGETIKASINI MOLIYALASHTIRMOQDA


YADRO YOQILGISI SOHASIDA TEXNOLOGIK YUTUQ

KICHIK MODULLI REAKTORLAR SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR

“NAVOIYURAN” DK XALQARO TAVSIYALARDA

URAN GEOLOGIYASINING YANGI BOSQICI SAMARQANDDA

## URANNING O'RTACHA OYLIK NARXI



2025-yil oktyabr oyida uranning spot narxlari yangi cho'qqilarga chiqdi. Oy boshida kotirovkalar bir funt uchun 83 AQSH dollaridan oshdi, bu yilning eng yuqori darajasiga yaqin ko'rsatkich bo'ldi. 31-oktyabr holatiga ko'ra spot narx 82,5 dollar atrofida saqlanib qoldi, uzoq muddatli kontraktlar bo'yicha esa narxlar taxminan 86 dollarni tashkil etdi. Narxlarning o'sishi barqaror ta'minot tanqisligi bilan izohlanmoqda: dunyo bo'yicha atom elektr stansiyalari har yili 180 million funt  $U_3O_8$  talab qiladi, biroq ishlab chiqarish hajmi atigi 130 million funtni tashkil etmoqda (taxminan 28 foizlik tanqislik). Bu tafovut atom energetikasiga bo'lgan qiziqishning qayta tiklanishi fonida saqlanib qolmoqda. Narxlarni qo'llab-quvvatlayotgan qo'shimcha omillar orasida Sprott Physical Uranium Trust va Yellow Cake plc kabi moliyaviy fondlarning uranni faol xarid qilayotgani ham bor, bu esa bozorda mavjud hajmni yanada kamaytirmoqda.



**NAVOIYURAN**

State-owned Enterprise

## TABIY URANGA BO'LGAN TAKLIF VA TALAB

*Mining.com ma'lumotlariga ko'ra, Cameco kompaniyasi McArthur River konida kechikishlarga duch kelgani sababli 2025-yil uchun prognozini 18 million funt o'rniga 14–15 million funt  $U_3O_8$  darajasigacha qisqartirdi. World Nuclear News xabariga ko'ra, "Kazatomprom" 2025-yilning birinchi yarmida 13 % ga o'sish (12,24 ming tonna) va yil yakuniga mo'ljallangan 25–26,5 ming tonna ishlab chiqarish rejasiga qaramay, hali maksimal quvvatga chiqishni rejalashtirmayapti. 2026-yilda kompaniya ishlab chiqarishni potentsialdan 10 % past darajada — ya'ni 32,8 ming tonna o'rniga 29,7 ming tonna atrofida ushlab turishni maqsad qilgan. Natijada bozordagi taklif cheklangan holda qolmoqda, biroq reaktor qurilishi hajmining ortishi fonida talab barqaror o'smoqda. WNA ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga borib jahon uran iste'moli 25–28 % ga ortadi: hozirda 60 dan ortiq energobloklar qurilmoqda, 2040-yilgacha esa 400 dan ziyod yangi reaktorlar ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Bu esa narxlarning o'sishi fonida uzoq muddatli kontraktlar uchun raqobatni kuchaytirmoqda.*





# XALQARO TADBIRLAR VA KELISHUVLAR

*Reuters ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil oktabr oyida Qozog'iston Finlyandiya AESlariga uran yetkazib berish bo'yicha muzokaralarni boshladi. Bu tashabbus Xelsinkining Rossiya yoqilg'isidan voz kechish siyosati fonida ilgari surilgan. Finlyandiya prezidenti Astanaga tashrifi chog'ida Qozog'iston Atom energetikasi agentligi rahbari uran eksporti masalasini muhokama qilishga tayyorligini bildirdi. Fortum energetika konserni esa Rossiyaning TVEL kompaniyasi bilan hamkorlikni to'xtatgach, Qozog'istonni yangi yetkazib beruvchi sifatida ko'rib chiqayotganini tasdiqladi. 28-oktyabr kuni AQSH hukumati Cameco va Brookfield (ular Westinghouse Electric kompaniyasining hammuassislari) bilan taxminan 80 mlrd AQSH dollarlik sakkizta AP1000 reaktorini tezlashtirilgan tartibda qurish bo'yicha hamkorlikni e'lon qildi. Davlat moliyalashtirish va ruxsatnoma jarayonlarini o'z zimmasiga olib, loyiha o'zini oqlagandan so'ng 20 foizgacha foyda ulushiga ega bo'ladi. Ushbu tashabbus Vashingtonning atom energiyasini kengaytirish strategiyasi doirasida amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, Yaponiya ham AQSH yadro infratuzilmasiga, jumladan Westinghousening yirik reaktorlari va SMR modulli texnologiyalariga, 332 mlrd AQSH dollarigacha sarmoya kiritish rejasini ma'lum qildi..*



**NAVOIYURAN**  
State-owned Enterprise

# URAN SANOATINING BUTUN-JAHON KO'RGAZMASI

*2025-yil oktabr oyida jahon yadro hamjamiyati COP30 iqlim sammiti arafasida o'zaro birdamlikni namoyish etdi. Parijda bo'lib o'tgan WNE xalqaro ko'rgazmasida 15 mamlakatning 17 tarmoq assotsiatsiyasi 2050-yilgacha atom energetikasi quvvatlarini uch barobar oshirish bo'yicha qo'shma deklaratsiyani imzoladi.*

*Hujjatda barqaror davlat qo'llab-quvvatlovi va investitsiyalar zarurligi, shuningdek, past uglerodli energiyaning ishonchli manbai sifatida atom energetikasining asosiy o'rni alohida ta'kidlandi. Ushbu bayonot iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda yadro sohasiga xalqaro hamjamiyatning kuchli qo'llab-quvvatlov signali sifatida e'tirof etildi.*



**NAVOIYURAN**  
State-owned Enterprise

# SINGAPUR ATOM ENERGETIKASINI KO'RIB CHIQMOQDA

*Oradan ancha vaqt o'tgach, Singapurda ilk bor atom energetikasini rivojlantirish imkoniyatlari haqida jiddiy bayonotlar yangradi. 27-oktyabr kuni bo'lib o'tgan Singapore International Energy Week ochilish marosimida energetika vaziri Tan Si Leng hukumat kichik modulli reaktorlar (SMR) texnologiyalarini qo'llagan holda atom energiyasidan foydalanish masalasini jiddiy o'rganayotganini ma'lum qildi.*

*AES qurilishi bo'yicha yakuniy qaror hali qabul qilinmagan bo'lsa-da, Singapur xalqaro hamkorlikni faollashtirdi va aholini xabardor qilish dasturlarini kengaytirdi. Bu qadam global tendensiyaning aks ettiradi: ilgari atom energetikasiga ehtiyotkorlik bilan qaragan ko'plab davlatlar endilikda uni energetik xavfsizlik va dekarbonizatsiya vositasi sifatida ko'rib chiqmoqda (World Nuclear News).*



**NAVOIYURAN**  
State-owned Enterprise



# IT-GIGANTLAR ATOM ENERGETIKASINI MOLIYALASHTIRMOQDA


*Dunyoning yirik texnologik korporatsiyalari o'z ma'lumot markazlarini energiya bilan ta'minlash uchun atom energiyasiga tayanmoqda. Google kompaniyasi NextEra Energy bilan 25 yillik kelishuv imzolab, Ayova shtatidagi "Duane Arnold" AESini qayta ishga tushirishni rejalashtirmoqda. 601 MVt quvvatga ega reaktor 2029-yilda qayta ekspluatatsiyaga kiritilib, Google'ning kengayib borayotgan ma'lumotlar markazlarini uzluksiz energiya bilan ta'minlaydi.*


*Amazon ham kichik modulli reaktorlar asosida yangi energetika majmuasini qurish rejasini e'lon qildi. Vashington shtatidagi "Cascade" loyihasi doirasida X-energy bilan hamkorlikda to'rttadan uch bosqichda jami 12 ta yuqori haroratli gaz bilan sovutiluvchi Xe-100 reaktorlari qurilishi ko'zda tutilgan bo'lib, umumiy quvvati 960 MVt ni tashkil etadi. Ushbu quvvatlar AWS bulutli infratuzilmasi ehtiyojlari uchun mo'ljallangan.*



**NAVOIYURAN**

State-owned Enterprise





## YADRO YOQILGISI SOHASIDA TEXNOLOGIK YUTUQ

Xitoy Fanlar akademiyasi huzuridagi Shanghai Institute of Applied Physics (SINAP) yadroviy texnologiyalar sohasida tarixiy yutuqqa erishganini e'lon qildi. Olimlar Gansu provinsiyasida ishga tushirilgan toriy asosidagi eritilgan tuzli tajriba reaktorida (thorium-MSR) toriyni bo'linuvchi uranga muvaffaqiyatli aylantirishni birinchi marta namoyish etdilar. Sinovlar jarayonida bo'linuvchi izotop — uran-233 olindi, bu esa toriy asosidagi yopiq yoqilg'i siklining amaliy amalga oshirilishi mumkinligini tasdiqladi. Mazkur kashfiyot atom energetikasining resurs bazasini sezilarli kengaytirish va tabiiy uranga bo'lgan qaramlikni kamaytirish imkonini beradi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bu yutuq yadro yoqilg'isi manbalarini diversifikatsiya qilish sari muhim qadam bo'lib, uzoq muddatli istiqbolda global uran bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.



**NAVOIYURAN**  
State-owned Enterprise

## KICHIK MODULLI REAKTORLAR (SMR) SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR

*Yevropada SMR texnologiyasini rivojlantirish bo'yicha yangi alyans (WNE 2025, Fransiya). NucNet ma'lumotlariga ko'ra, Fransiyada bo'lib o'tgan World Nuclear Exhibition doirasida Ansaldo Energia va Ansaldo Nucleare kompaniyalari EDF (uning sho'ba korxonasi — Nuward) bilan Nuward SMR reaktorini birgalikda ishlab chiqish bo'yicha anglashuv deklaratsiyasini imzoladilar.*

*Ushbu hamkorlik kichik modulli reaktorlarning yangi avlodini yaratishda Yevropa texnologik integratsiyasini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, ular energiya tizimlaridan tortib sanoat bug'i va isitish tizimlarigacha bo'lgan sohalarda moslashuvchan qo'llanilishi bilan ajralib turadi. SMR texnologiyalarining turli mamlakatlarda joriy etilishi atom elektr stansiyalarini qurish muddatini sezilarli qisqartirishi, shuningdek uran kabi yadro yoqilg'isiga bo'lgan global talabni oshirishi mumkin.*




**NAVOIYURAN**  
State-owned Enterprise



## **“NAVOIYURAN” DK AMALIYOTI XALQARO TAVSIYALARDA**

Vena shahrida “Uran qazib olish va qayta ishlashda ekologik boshqaruvning eng yaxshi amaliyotlari” mavzusida Xalqaro atom energiyasi agentligi (MAGATE) texnik anjumani bo‘lib o‘tdi. Tadbir yadro sanoatining yetakchi ekspertlari va mutaxassislarini birlashtirib, ekologik xavfsizlik hamda barqaror rivojlanish bo‘yicha tajriba almashish maydonchasiga aylandi.

Ishtirokchilar “Navoiyuran” DUKning yutuqlarini alohida ta’kidlab o‘tdilar. Korxona tomonidan kislorod asosidagi kam reagentli uran qazib olish texnologiyasi hamda ISO va ESG xalqaro standartlari muvaffaqiyatli joriy etilgan bo‘lib, bu atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini berdi. Tadbir yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston tajribasi — “Navoiyuran” DK misolida — MAGATening “Nuclear Energy Series No. NF-T-1.2 Best Practice in Environmental Management of Uranium Mining” nomli navbatdagi nashriga kiritilishi rejalashtirilgan. Bu esa korxonaning ekologik yutuqlari xalqaro miqyosda e’tirof etilganini tasdiqlaydi.



# MAGATENING SAMARQANDDAGI UCHRASHUVI: URAN GEOLOGIYASINING YANGI BOSQICI

2025-yil 13–17-oktabr kunlari Samarqand shahrida MAGATE tomonidan “Qumtoshli uran konlarini qidirish va qazib olish masalalariga bagʻishlangan xalqaro texnik uchrashuv” boʻlib oʻtdi. Tadbirda 30 dan ortiq mamlakatlardan yadro sanoati mutaxassislari va ekspertlar ishtirok etdi. Forum innovatsion va ekologik barqaror ISR qazib olish texnologiyalari, geologik qidiruvni raqamlashtirish hamda foydali qazilma resurslaridan oqilona foydalanish masalalarini muhokama etish uchun muhim platforma boʻldi.

“Navoiyuran” DK oʻzining kislorodli kam reagentli yuvish texnologiyasi natijalarini taqdim etdi. Ushbu texnologiya MAGATE tomonidan eng ilgʻor amaliyot namunasi sifatida eʼtirof etildi.

Uchrashuvda, shuningdek, jahondagi yadro energetikasining kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega boʻlgan qora slanets turidagi uran konlarini oʻrganish istiqbollari ham muhokama qilindi. Mazkur tadbir Oʻzbekistonning uran geologiyasi va atom sanoatining barqaror rivojlanishi yoʻnalishidagi xalqaro hamkorlik markazlaridan biriga aylanganini yana bir bor tasdiqladi.



**NAVOIYURAN**  
State-owned Enterprise

